

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI

**OLIY TA’LIMDAN KEYINGI TA’LIM TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH  
CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son [Farmoni](#) ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim to‘g‘risidagi Nizom [2-ilovaga](#) muvofiq;

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarning — falsafa doktori (Doctor of Philosophy), fan doktori (Doctor of Science) diplomlari, shuningdek dotsent, katta ilmiy xodim va professor attestatlarining davlat namunalari [3 — 7-ilovalarga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2017-yil 1-iyuldan boshlab ushbu qaror bilan tasdiqlanadigan talablarga muvofiq attestatsiya ishlarini qabul qilish, ko‘rib chiqish va izlanuvchilarga falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalarini berishni ta’minlasin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ular tomonidan qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

4. Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim va oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2012-yil 28-dekabrda 365-son [qaroriga](#) (O‘zbekiston Respublikasi SP, 2012-yil, 12-son, 90-modda) [8-ilovaga](#) muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining IT-texnologiyalar, telekommunikatsiyalar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari departamentiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2017-yil 22-may,  
304-son

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son [qaroriga](#)  
2-ILOVA

**Oliy ta’limdan keyingi ta’lim to‘g‘risida**

**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutida tahsil olishni tashkil etish va o‘qish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom Al-Xorazmiy universitetiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**oliy ta’limdan keyingi ta’lim** — doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o‘rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta’minlaydigan ta’lim turi;

**oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti** — ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasalarida tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik shakllaridagi oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshirish tizimi;

**stajyor-tadqiqotchilik** — ishlab chiqarishdan ajralgan holda tegishli ixtisoslik bo'yicha ilmiy va ilmiy-ijodiy izlanishlarni olib borish va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun izlanuvchini tayyorlash shakli;

**tayanch doktorantura** — falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli;

**doktorantura** — fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli;

**mustaqil izlanuvchilik** — falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli;

**stajyor-tadqiqotchi** — ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasalariga stajyor-tadqiqotchilikka belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs;

**doktorant** — ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasalariga tayanch doktorantura yoki doktoranturaga belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs;

**mustaqil izlanuvchi** — ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasalariga mustaqil izlanuvchilikka belgilangan tartibda qabul qilingan shaxs;

**izlanuvchi** — falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasini tayyorlayotgan shaxs.

**oliy ta'limdan keyingi ta'limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimi (keyingi o'rinlarda — Yagona elektron tizim)** — oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga qabul qilish, stajyor-tadqiqotchi va izlanuvchilarning yakka tartibdagi rejaları bajarilishi bo'yicha hisobotlarni shakllantirish bo'yicha hujjatlarning elektron almashinuvini tashkil etishga mo'ljallangan axborot tizimi.

3. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutida ta'lim quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

tayanch doktorantura;

doktorantura;

mustaqil izlanuvchilik;

Stajyor-tadqiqotchilik instituti oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutiga tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi.

4. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti ilmiy tashkilot va ta'lim muassasalari huzurida fan va texnikaning muhim tarmoqlarida oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, shuningdek fan va texnologiyalarning ustuvor yo'nalishlarida fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish, davlat ilmiy dasturlarini amalga oshirish maqsadida ochiladi.

5. Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni (O'zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bundan mustasno) oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga o'qishga qabul qilish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va/yoki xalqaro shartnomalarga muvofiq to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga o'qishga fuqarolar bilan teng huquqlarda qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya vizasiga ega bo'lgan xorijiy investorlar hamda ularning oila a'zolari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan shartlarda oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga o'qishga kirishga va ta'lim olishga haqli.

6. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutiga qabul qilinayotgan magistr yoxud klinik ordinaturaga (tibbiyot fanlari uchun) yoki mutaxassislik dasturlari bo'yicha (1997-yilgacha) olingan oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomga ega bo'lish, fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) yoki unga tenglashtirilgan xorijiy mamlakatlarda ilmiy darajaga ega bo'lganlar mutaxassisligi oliy ta'limdan

keyingi ta'lim ixtisosligi tegishli bo'lgan fan sohasiga muvofiq bo'lishi shart. Fan sohalari mos kelmaganda yoki oliy ta'limdan keyingi ta'limda fanning turdosh sohalari bo'yicha olish rejalashtirilganda talabgorlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (keyingi o'rinlarda OAK deb ataladi) belgilagan fanlar bo'yicha qo'shimcha imtihonlar topshirishi lozim.

Shu bilan birga, tibbiyot, farmatsevtika, veterinariya mutaxassisliklar bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutiga fanning turdosh sohalari bo'yicha qabul qilinishga yo'l qo'yilmaydi.

Bakalavriat ta'limi yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi ta'limning turli sohalariga tegishli bo'lganda, OAK tomonidan belgilangan fanlar bo'yicha qo'shimcha imtihonlar topshirish sharti bilan, bakalavriat ta'limining yo'nalishiga tegishli bo'lgan ta'lim sohasiga muvofiq bo'lgan mutaxassislik bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun doktorlik dissertatsiyasining belgilangan tartibda tayyorlanishiga va himoya qilinishiga yo'l qo'yiladi.

7. Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni sifatli tayyorlashni ta'minlash, shuningdek dissertatsiya tadqiqotlarni o'tkazishda ularga ilmiy va o'quv-uslubiy yordam ko'rsatish maqsadida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish istagidagi talabgorlar Kollegial organ qarori bilan ilmiy rahbarlarga, fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish istagidagi talabgorlar esa — ilmiy konsultantlarga biriktiriladi.

Fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlanadigan dissertatsiya tadqiqotlari ilmiy konsultantni tayinlanmasdan ham amalga oshirilishi mumkin.

8. Fan doktori bir vaqtning o'zida to'rttadan ko'p bo'lmagan izlanuvchilarga ilmiy rahbar va konsultant bo'lishi mumkin. So'nggi uch yilda izlanuvchilari o'z vaqtida himoya qilgan ilmiy rahbar va ilmiy konsultantlarga ilmiy yoki ta'lim tashkilotlarining kollegial organi xulosasi asosida oltitadan ko'p bo'lmagan izlanuvchilar biriktirilishi mumkin.

Ilmiy unvoni bo'lgan fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) bir vaqtning o'zida ikkitadan ko'p bo'lmagan izlanuvchilarga ilmiy rahbarlik qilishi mumkin. So'nggi uch yilda izlanuvchilari o'z vaqtida himoya qilgan ilmiy rahbarlarga ta'lim yoki ilmiy tashkilotning kollegial organi xulosasi asosida uchtadan ko'p bo'lmagan izlanuvchilar biriktirilishi mumkin.

Xorijiy fuqarolarga yoki fuqaroligi bo'lmagan izlanuvchilarga o'rnatilgan me'yordan ortiq ilmiy rahbar yoki konsultantlar tayinlanishi mumkin.

## **2-bob. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarini ochish tartibi**

9. Ilmiy tashkilot va ta'lim muassasalari o'zlari tizimiga kiradigan tegishli vazirliklar, idoralar va tashkilotlarga tayanch doktorantura yoki doktoranturani ochishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida quyidagi hujjatlar bilan murojaat qiladi:

oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutini ochish bo'yicha muassasaning muvofiqlashtiruvchi-kollegial organining (keyingi o'rinlarda Kollegial organ deb yuritiladi) (ilmiy kengash, kengash, ilmiy-texnik kengash, ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengash va h.k.) tegishli qarori;

Nizomning **ilovasiga** muvofiq tegishli mutaxassisliklar bo'yicha tadqiqot olib boruvchi fan nomzodi, falsafa doktori (PhD), fan doktorlari to'g'risidagi kadrlar bo'limi tomonidan tasdiqlangan ma'lumot;

shuningdek, oliy ta'limdan keyingi ta'lim faoliyatini sifatli ta'minlashda moddiy-texnik baza mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar.

10. Tizimida ilmiy va ta'lim tashkilotlari bo'lgan vazirlik, idora va tashkilotlar murojaat tushgan va barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan sanadan boshlab bir oy muddatda oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutini ochish yoki ochishni rad etish to'g'risida kollegial organ qarorini qabul qiladilar. Qabul qilingan qaror o'n kun muddatda tegishli ilmiy va ta'lim tashkilotlariga yuboriladi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutini ochish to'g'risidagi qarorning nusxasi axborot uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligiga yuboriladi.

O‘zlarida oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlari ochilgan ilmiy tashkilotlar va ta’lim muassasalari ham mustaqil izlanuvchilik tartibida oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashi mumkin.

Xorijiy yoki nodavlat ilmiy yoki ta’lim tashkilotlariga oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutini ochish mazkur Nizomning 9 va 10-bandlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunda mazkur tashkilotlarga qabul kvotasi ushbu Nizomning 13 va 14-bandlariga muvofiq shakllantirilgan umumiy qabul kvotasi doirasida ajratiladi.

11. Ilmiy tashkilot yoki ta’lim muassasalaridagi oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlarini davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish qonunchilikda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

12. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash masalalarida tasarrufida ilmiy tashkilot va ta’lim muassasalariga ega vazirlik va idoralarning faoliyatini muvofiqlashtiradi.

### **3-bob. Oliy ta’limdan keyingi ta’limni tayanch doktorantura va doktorantura shaklida tashkil etish**

13. Tayanch doktorantura va doktoranturaga O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga va to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish uchun qabul kvotasi (keyingi o‘rinlarda qabul kvotasi deb ataladi), qoida tariqasida, tegishli o‘quv yili uchun tasdiqlangan oliy ta’lim muassasalariga davlat buyurtmasi asosida magistratura mutaxassisliklariga o‘qishga qabul qilish umumiy parametrlarining 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda belgilanadi.

Tizimida ilmiy tashkilot yoki ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar, idoralar va tashkilotlar har yili 1-iyungacha bo‘lgan muddatda Yagona elektron tizim orqali elektron shaklda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligiga ilmiy darajali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlar, amaldagi oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlarining samaradorligi, ta’lim olayotgan stajyor-tadqiqotchilar, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar kontingenti, ilmiy rahbarlar va ilmiy konsultantlarning samarali ishlari, shuningdek, mazkur Nizomda belgilangan bitta ilmiy rahbar va bitta ilmiy konsultantga birlashtiriladigan izlanuvchilar va stajyor tadqiqotchilar sonidan kelib chiqib, keyingi yildan boshlab davlat akkreditatsiyasidan o‘tgan yo‘nalishlar bo‘yicha stajyor-tadqiqotchilikka, tayanch doktoranturaga, doktoranturaga qabul kvotasi bo‘yicha asoslangan takliflar bilan murojaat qiladilar.

14. Tizimida ilmiy va ta’lim tashkilotlari bo‘lgan vazirlik va idoralar tegishli ilmiy va ta’lim tashkilotlari tomonidan qabul kvotasi bo‘yicha asoslangan takliflarni har yili 10-iyungacha Yagona elektron tizim orqali O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligiga yuborilishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi qabul kvotasi bo‘yicha asoslangan takliflarni budget parametrlari asosida ko‘rib chiqib har yili 1-avgustga qadar Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligiga Yagona elektron tizim orqali yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi tizimida ilmiy va ta’lim tashkilotlari bo‘lgan vazirlik va idoralar bilan qat’iy ravishda kelishgan holda har yili 20-avgustga qadar ilmiy va ta’lim tashkilotlari kesimida akkredetatsiyadan o‘tgan ixtisosliklar bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlarining samaradorlik ko‘rsatkichlariga asosan qabul kvotasini tasdiqlaydi.

Qabul kvotasi miqdorini ilmiy va ta’lim tashkilotlari kesimida taqsimlashda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi va tizimida ilmiy va ta’lim tashkilotlari bo‘lgan vazirlik va idoralar o‘rtasida kelishmovchilik yuzaga kelgan taqdirda tegishli vazirlik yoki idora tizimidagi ilmiy va ta’lim tashkilotlari uchun qabul kvotasi miqdorini belgilash Vazirlar Mahkamasining Ijtimoiy rivojlanish masalalari bo‘limining ko‘rsatmasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ilmiy va ta'lim tashkilotlari vazirlik va idora tomonidan budget mablag'lari hisobidan ajratilgan kvotalardan tashqari ehtiyoj bo'lgan yo'nalishlariga izlanuvchining to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan qo'shimcha qabul kvotasini davlat akkreditatsiyasi shartlari asosida shakllantirishi mumkin. To'lov-kontrakt summasi ilmiy va ta'lim tashkilotlari tegishli bo'ysunuvidagi vazirlik, idora va tashkilot tomonidan belgilanadi.

Ilmiy va ta'lim tashkilotlari akkreditatsiyadan o'tgan ixtisosliklar bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlarining samaradorlik ko'rsatkichlariga asosan taqsimlangan qabul kvotalaridan ortib qolgan o'rinlar har yili 5-dekabrqa qadar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligiga ma'lumot kiritadi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi har yili 10-dekabrqa qadar ortib qolgan qabul kvotalarini ilmiy va ta'lim tashkilotlarining ilmiy darajali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olib qaytadan taqsimlaydi.

Ilmiy va ta'lim tashkilotlariga qayta taqsimlangan kvotalar kirish imtihonlarida qatnashib, kirish balidan past ball to'plagan talabgorlarning ballari ketma-ketligida amalga oshiriladi va bu haqidagi ma'lumotlar har yili 15-dekabrqa qadar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligiga taqdim etiladi.

15. Ilmiy tashkilot va ta'lim muassasalar har yili 1-sentabrdan kechikmasdan ommaviy axborot vositalarida qabul kvotalariga muvofiq hujjatlarni qabul qilish muddatlarini, talab qilinadigan hujjatlar, topshiriladigan imtihonlar ro'yxatini va qabul kvotasi miqdorini ko'rsatgan holda tayanch doktorantura va doktoranturada o'qish uchun talabgorlarning hujjatlarini qabul qilish to'g'risida e'lon beradi.

Hujjatlar ilmiy tashkilot va ta'lim muassasalari qabul komissiyasi tomonidan 15-sentabrdan 15-oktabrgacha bo'lgan davrda Yagona elektron tizim yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali qabul qilinadi.

15<sup>1</sup>. Stajyor-tadqiqotchilikka kiruvchi shaxslar magistr darajasi yoki klinik ordinatura (tibbiyot fanlari uchun), yoki oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha 1997-yilgacha) to'g'risidagi diplomga ega bo'lishi lozim.

16. Tayanch doktoranturaga quyidagilarga ega bo'lganlar qabul qilinadi:

magistr darajasiga yoxud klinik ordinaturani tugatgan (tibbiyot fanlari uchun), oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) ega bo'lganlar;

falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy natijalar, shu jumladan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida bitta maqola hamda tegishli yo'nalishlar bo'yicha ikkitadan kam bo'lmagan ilmiy ishlar to'plamlariga kiritilgan ma'ruza tezislarga ega bo'lganlar.

17. Ilmiy tashkilot va ta'lim muassasalarda rektor (direktor) raisligida qabul komissiyasi tuziladi. Qabul komissiyasi a'zolari rektor (direktor) tomonidan tegishli ixtisoslik bo'yicha yetakchi olimlar orasidan tayinlanadi.

Ixtisoslik bo'yicha imtihonlarni topshirishda qabul komissiyasi tarkibida kamida bitta fan doktori yoki professor bo'lishi zarur, komissiyaning qolgan a'zolari fan nomzodlari yoki falsafa doktorlari (PhD) bo'lishi mumkin.

18. Stajyor-tadqiqotchilik va tayanch doktoranturada o'qish uchun talabgorlar ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasalariga quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

ariza;

qisqacha biografik ma'lumotnoma;

klinik ordinaturani tugatganlik (tibbiyot fanlari uchun) to'g'risidagi diplom nusxasi;

nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek ularning nusxalari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi sohiblari tegishli hujjat nusxasini taqdim etadilar.

Talabgorlarning mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun) oliy ta'lim muassasasi bakalavri va magistraturasi diplom ma'lumotlari "Raqamli hukumat" tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali mustaqil ravishda olinadi.

19. Doktoranturaga quyidagilarga ega bo'lganlar qabul qilinadi:

fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) yoxud ularga tenglashtirilgan xorijiy davlatlarda olingan ilmiy darajalar;

fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi yoxud ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalar olgandan so'ng muhim ilmiy yutuqlarga erishish, shu jumladan, fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida uchta ilmiy maqolaga hamda ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar to'plamlarida kamida ikkita tezisga ega bo'lish.

20. Doktoranturada o'qishga talabgorlar ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasalariga quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

ariza;

qisqacha biografik ma'lumotnoma;

fan nomzodi yoxud falsafa doktori (PhD) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo'lganligi to'g'risidagi diplom nusxasi;

tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy ma'ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi;

nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek ularning nusxalari.

Talabgorlarning mehnat daftarchasining nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun) va oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom ma'lumotlari "Raqamli hukumat" tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali mustaqil ravishda olinadi.

22. Tayanch doktoranturada o'qish uchun talabgorlar mutaxassislik va chet tili (ta'limning oldingi darajalarida o'rganilgan xorijiy til) bo'yicha kirish imtihonlari topshiradilar. Talabgorlarda IELTS (o'rtacha balli kamida 5,5), TOEFL (RVT) (567 balldan kam bo'lmagan), TOEFL (iBT) (87 balldan kam bo'lmagan), CEFR (V2 darajadan past bo'lmagan) bo'yicha tasdiqlovchi amaldagi xalqaro malaka sertifikatlari mavjud bo'lganda chet tilidan topshiriladigan imtihonlardan ozod etiladi.

Kirish imtihonlari savollari ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasining qabul komissiyasi tomonidan mutaxassislikning mohiyatidan kelib chiqib tuziladi va Kollegial organ tomonidan tasdiqlanadi.

Stajyor-tadqiqotchilik va doktoranturada o'qish uchun kirayotgan talabgorlar Kollegial organ tomonidan ixtisoslik bo'yicha suhbatdan o'tadilar.

Barcha sohalar shu jumladan, fizika-matematika va texnika fanlari bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga qabul qilishda tegishli fan yo'nalishlarida milliy sertifikatga ega bo'lgan talabgor mutaxassislik fani bo'yicha imtihondan ozod etiladi va unga mutaxassislik fani uchun belgilangan maksimal ball beriladi.

23. Tayanch doktoranturaga kirish imtihonlari va doktoranturaga kirish uchun suhbat har yili 1 — 25-noyabr davrida o'tkaziladi.

24. Stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktoranturaga va doktoranturaga kiruvchi talabgorlarning kirish imtihonlari, suhbat natijalaridan va ajratilgan qabul kvotasidan kelib chiqib, qabul komissiyasi va (yoki) Kollegial organ tomonidan 30-noyabrgacha bo'lgan muddatda qabul qilinganlardan tanlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat stipendiyalari sohiblari tayanch doktoranturaga kirish imtihonlarisiz qabul qilinadi.

Bir necha talabgorlarning stajyor-tadqiqotchilikka, tayanch doktoranturaga va doktoranturaga kirish imtihonlari yoki suhbat natijalari bo'yicha ular tomonidan to'plangan yakuniy ballari teng bo'lgan taqdirda quyidagi talabgorlarga ustunlik beriladi:

a) stajyor-tadqiqotchilik va tayanch doktoranturaga:

magistraturani a'lo baholar bilan tamomlaganlar;

mualliflik guvohnomalari va patentga ega bo'lganlar;

jurnallarda, shu jumladan xorijiy jurnallarda ilmiy maqolalar chop etganlar;

b) doktoranturaga:

5 yildan ortiq ilmiy-pedagogik stajga ega bo'lganlar;  
mualliflik guvohnomalari va patentga ega bo'lganlar;  
monografiya (ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun), talabgorning dissertatsiya mavzusi bo'yicha tegishli ilmiy jurnallarda, shu jumladan xorijiy jurnallarda chop etilgan soni bo'yicha (boshqa talabgorlarga nisbatan) ko'p miqdorda ilmiy maqolaga ega bo'lganlar;  
dissertatsiya tadqiqoti hajmining 50 foizdan ko'p qismini bajarganlar.

25. Qabul komissiyasi tayanch doktoranturada ta'lim oluvchilarning kirish imtihonlari natijalarini majlis protokoli bilan rasmiylashtiradi va besh kun muddatda Kollegial organga tasdiqlash uchun kiritadi. Stajyor-tadqiqotchilik va doktoranturada ta'lim oluvchi talabgorlar bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalari ham Kollegial organ qarori bilan tasdiqlanadi.

Shu bilan birga, Kollegial organ qarorida tayanch doktorantura va doktoranturaga qabul qilinganlarning doktorlik dissertatsiyasi mavzulari tasdiqlanadi.

Qabul komissiyasi doktoranturaga kirish imtihonlari va suhbat jarayonlarini video kuzatuv ostida (onlayn translyatsiya) o'tkazish choralarini ko'radi.

Tayanch doktoranturaga kirish imtihonlari bo'yicha topshiriladigan birinchi fan (mutaxassislik yoki chet tili) umumiy balining 50 foizidan kam ball to'plagan talabgorlar keyingi bosqichga o'tkazilmaydi.

26. Stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturaga o'qishga qabul qilish ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasi rahbari buyrug'i bilan har yili 5-dekabrgacha amalga oshiriladi. Bunda stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturada ta'lim olish keyingi yilning 1-yanvaridan boshlanadi.

O'qishga qabul qilish to'g'risidagi buyruqda ilmiy rahbarlar va ilmiy konsultantlar (konsultant bo'lgan taqdirda) ham belgilanadi.

27. Stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va (yoki) doktoranturada o'qishga qabul qilinganlar, ularning tasdiqlangan mavzulari, ilmiy rahbarlari va ilmiy konsultantlari (konsultantlar tayinlangan holatlarda) to'g'risidagi ma'lumot:

Ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasi tomonidan — yuqori vazirlik, idora va tashkilotlarga har yili 10-dekabrgacha;

vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan — har yili 15-dekabrigacha Yagona elektron tizimga kiritiladi.

28. Stajyor-tadqiqotchi va doktorant ilmiy rahbar va konsultant (konsultant tayinlangan holatlarda) bilan birgalikda yakka tartibdagi rejasini ishlab chiqadi. Yakka tartibdagi reja stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktoranturaga yoki doktoranturaga o'qishga qabul qilingandan keyin bir oyda Kollegial organ qarori bilan tasdiqlanadi va Yagona elektron tizimga yuklanadi.

29. Ilmiy rahbar doktorant uchun ixtisoslik bo'yicha nazariy-metodologik dastur ishlab chiqadi. Nazariy-metodologik dastur tayanch doktoranturaga o'qishga qabul qilingandan boshlab bir oy muddat ichida Kollegial organ tomonidan tasdiqlanadi.

Nazariy-metodologik dastur metodologiyaning umumiy konsepsiyasi va masalalarini, mazkur ixtisoslik bo'yicha nazariy asoslarni va ilmiy tadqiqot usullarini o'z ichiga oladi. Nazariy-metodologik dastur tayanch doktorant tomonidan o'qishning birinchi yili mobaynida ilmiy rahbarning yordamida o'zlashtiriladi.

30. O'qishga qabul qilingan sanadan boshlab:

stajyor-tadqiqotchilikda — tahsil oluvchi shaxslarga stajyor-tadqiqotchi lavozim maoshining bazaviy miqdoriga tenglashtirilgan miqdorda stipendiya to'lanadi;

tayanch doktoranturada — tahsil oluvchi shaxslarga ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega bo'lmagan (2 yilgacha ilmiy faoliyat tajribasiga ega bo'lgan) kichik ilmiy xodim lavozim maoshining bazaviy miqdoriga tenglashtirilgan miqdorda stipendiya to'lanadi;

doktoranturada tahsil oluvchi shaxslarga fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan yetakchi ilmiy xodim lavozim maoshining bazaviy miqdoriga tenglashtirilgan miqdorda stipendiya to'lanadi.

31. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturaga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha tasdiqlangan kvotalarini hisobga olgan holda tayyorlangan xarajatlar smetasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlar parametrlarida belgilangan tartibda ta‘lim muassasasi uchun — “Ta‘lim” sohasi bo‘yicha va ilmiy tashkilot uchun — “Fan” sohasi bo‘yicha zarur mablag‘lar ajratishni nazarda tutadi.

Oliy harbiy ta‘lim muassasalariga (keyingi o‘rinlarda “OHTM” deb yuritiladi) qabul qilingan tayanch doktorant va doktorantlarning moddiy ta‘minoti harbiy xizmatchilar uchun qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

32. Tegishli hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturada o‘qish muddati uzoq vaqt kasal bo‘lish, homiladorlik va tug‘ish ta‘tilida bo‘lish davriga, shuningdek harbiy yig‘inlarga chaqirilish munosabati bilan uzaytirilishi mumkin.

Stajyor-tadqiqotchi va izlanuvchilarni bir ilmiy yoki ta‘lim tashkilotidan boshqasiga ko‘chirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Qonunchilikda belgilangan tartibda tugatilgan ilmiy va ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim olgan stajyor-tadqiqotchi va izlanuvchilar tugatilgan ilmiy va ta‘lim tashkilotlarning huquqiy vorisi etib belgilangan ilmiy va ta‘lim tashkilotlarga o‘qishni davom ettirishlari uchun o‘tkaziladi.

33. Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga izlanuvchilar doktorlik dissertatsiyalarini Oliy ta‘limdan keyingi ta‘limga qo‘yiladigan davlat ta‘lim talablariga muvofiq malakaviy imtihonlarni topshirganlaridan keyin himoya qilishga qo‘yiladilar.

35. Ta‘lim muassasasida ilmiy rahbarlar va konsultantlar tomonidan doktorant bilan olib borilgan ish umumiy o‘quv yuklamasiga kiritiladi va qonunchilikda belgilangan tartibda har bir stajyor-tadqiqotchi uchun 75 soat va doktorant uchun bir yilda 100 soat hajmida har oyda to‘lanadi.

OHTMda ilmiy rahbarlar va konsultantlarga ish haqi to‘lovi tizimida OHTM mavjud bo‘lgan vazirlik va idoralar tomonidan belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

Ilmiy tashkilotda ilmiy rahbarlar va konsultantlarning doktorantlar bilan mehnatiga haq to‘lash har oyda o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazganlik uchun mehnatga soatbay haq to‘lashning qonunchilikda belgilangan tartibida har bir stajyor-tadqiqotchi uchun 75 soat va doktorant uchun bir yilda 100 soat hisobida O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan “Fan” sohasiga ajratilgan mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi.

Xorijiy fuqarolar yoki fuqaroligi bo‘lmagan, shuningdek, to‘lov-kontrakt asosida qabul qilingan doktorantlarning ilmiy rahbarlari va konsultantlarning mehnatiga haq to‘lash o‘qitish uchun kelib tushadigan mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi.

36. Stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturada o‘qish muddati doktorantlarning umumiy ish stajiga qo‘shiladi.

37. Oliy ta‘limdan keyingi ta‘limni tugatganlar tayanch doktorantura yoki doktoranturaga qayta qabul qilinmaydi.

#### **4-bob. Oliy ta‘limdan keyingi ta‘limni mustaqil izlanuvchilik shaklida tashkil etish**

38. Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun mustaqil izlanuvchilikka quyidagilar rasmiylashtiriladi:

magistr yoki klinik ordinatura (tibbiyot fanlari uchun) diplomi yoki oliy ma‘lumot to‘g‘risidagi (ixtisoslik bo‘yicha) diplomga ega bo‘lganlar;

belgilangan ilmiy maqolalariga ega bo‘lganlar;

39. Fan doktori (DSc) ilmiy darajasi uchun mustaqil izlanuvchilikka fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) yoki ularga tenglashtirilgan xorijiy mamlakatlarda olingan diplomga ega bo‘lgan, belgilangan tartibda talablarga muvofiq ilmiy daraja olganidan so‘ng salmoqli ilmiy yutuqlarga erishgan shaxslar rasmiylashtiriladi.

40. Ilmiy tashkilot va ta‘lim muassasalari talabgorlarning mustaqil izlanuvchilikka hujjatlarini qabul qilish yil davomida amalga oshiriladi.

41. Mustaqil izlanuvchilikka talabgor quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda ariza bilan ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasiga Yagona elektron tizim yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qiladi:

qisqacha biografik ma'lumotnoma;

falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun mustaqil izlanuvchi sifatida rasmiylashtirish uchun magistrlik yoki klinik ordinatura (tibbiyot fanlari uchun) yoki oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturi bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi;

mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi;

ilmiy ishlar ro'yxati va ularning nusxasi;

fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun mustaqil izlanuvchi sifatida rasmiylashtirish uchun fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) diplomi yoki xorijda olingan unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalar diplomi nusxasi;

ish joyidan tavsifnoma.

42. Tibbiyot fanlari bo'yicha mustaqil izlanuvchi sifatida rasmiylashtirishda ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasining Kollegial organi qarori bilan talabgordan klinik ordinaturani (magistraturani) tugatgandan so'ng yoki ilmiy darajani olganidan so'ng ilmiy, ilmiy-pedagogik yoki amaliy ish stajiga (ikki yildan to'rt yilgacha bo'lgan muddatda) ega bo'lishi talab etilishi mumkin.

43. Mustaqil izlanuvchilikka talabgorlarni tanlab olish har chorakning uchinchi oyigacha bo'lgan muddatda ixtisoslik bo'yicha suhbat natijalari va ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasidagi qabul komissiyasining tegishli xulosasi bo'yicha amalga oshiriladi.

Mustaqil izlanuvchilikka talabgorlar bilan o'tkazilgan suhbat natijalari Kollegial organ qarorlari bilan tasdiqlanadi. Shu bilan birga, Kollegial organ qarorida mustaqil izlanuvchilarning dissertatsiya mavzulari tasdiqlanadi va ilmiy rahbar yoki ilmiy konsultant mehnatiga haq to'lash shartlari belgilanadi.

44. Talabgorlar ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasi rahbarining har chorakda 5-mart, 5-iyun, 5-sentabr va 5-dekabr gacha e'lon qilinadigan buyrug'i bilan mustaqil izlanuvchilikka rasmiylashtiriladilar. Buyruqda, shuningdek, mustaqil izlanuvchilarning ilmiy rahbarlari va ilmiy konsultantlari (konsultant bo'lgan taqdirda) belgilanadi.

45. Mustaqil izlanuvchilikka qabul qilish to'g'risidagi buyruq tegishli ilmiy tashkilot va ta'lim muassasa tomonidan buyruq qabul qilinganidan so'ng 5 kun davomida Yagona elektron tizimga kiritiladi.

46. Mustaqil izlanuvchilar rasmiylashtirilganlaridan so'ng bir oy muddatda ilmiy rahbar yoki konsultant (konsultant bo'lgan taqdirda) bilan kelishgan holda yakka tartibdagi rejalarini Kollegial organda ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim etadilar.

Mustaqil izlanuvchining yakka tartibdagi rejasi tegishli ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasi tomonidan Yagona elektron tizimga yuklanadi.

47. Amaldagi barcha talablarni bajargan va dissertatsiyasini OAK talablariga muvofiq ravishda rasmiylashtirgan mustaqil izlanuvchilar dissertatsiya himoyasiga qo'yiladi.

48. Ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasida ilmiy rahbarlar va konsultantlarning mustaqil izlanuvchilar bilan olib boradigan ishi uchun haq mehnatga soatbay haq to'lash bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibda o'quv mashg'ulotlari olib borilgani uchun har bir izlanuvchi hisobiga bir yilda 50 soat hisobidan har oyda to'lanadi.

Ta'lim muassasasida ilmiy rahbar yoki konsultant muassasaning budjetdan tashqari mablag'lari hisobdan oylik maosh olayotgan bo'lsa, mustaqil izlanuvchilar bilan ishlash uning umumiy o'quv yuklamasi hajmiga kiritilishi mumkin.

Ilmiy rahbarlar va konsultantlarning xorijiy fuqarolar yoki fuqaroligi bo'lmagan mustaqil izlanuvchilar bilan mehnatiga haq to'lash o'qish bo'yicha tuzilgan shartnomalarga muvofiq amalga oshiriladi.

49. Bir necha ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasida bir vaqtning o'zida mustaqil izlanuvchilikka yo'l qo'yilmaydi.

## **5-bob. Oliy ta'limdan keyingi ta'limni to'lov-kontrakt asosida tashkil etish**

50. Xorijiy fuqarolarni va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga qabul qilish va o'qitish qonunchilik va (yoki) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq oliy ta'limdan keyingi ta'limga qabul kvotalaridan tashqari to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya vizasiga ega bo'lgan xorijiy investorlar hamda ularning oila a'zolari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan shartlarda oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlariga o'qishga kirishga va ta'lim olishga haqlidir.

51. To'lov-kontrakt asosida oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshirishda o'qitish uchun, jumladan ilmiy rahbarlar va konsultantlar mehnatiga haq to'lash, tadqiqotlar va eksperimentlar o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga oladigan haq miqdori, shuningdek uni to'lash tartibi qonunchilikda belgilangan tartibda manfaatdor tomonlar o'rtasida tuziladigan shartnoma bilan belgilanadi.

### **6-bob. Izlanuvchilar faoliyati samaradorligining monitoringi**

52. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi, tizimda oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi ilmiy tashkilotlar va ta'lim muassasalariga ega vazirliklar, idoralar va tashkilotlar bilan birgalikda izlanuvchilar faoliyatining samaradorligi bo'yicha har yili kamida 1-marta monitoring olib boradilar.

Joylarga chiqqan holda monitoringni olib borish uchun ishchi guruh tuziladi, uning tarkibi tizimida ilmiy tashkilot va ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar xodimlari tarkibidan shakllantiriladi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlari mavjud bo'lgan ilmiy va ta'lim tashkilotlari har yili 2-marta (iyun va dekabr oylarida) izlanuvchilar faoliyatini ichki monitoring qiladi. Ichki monitoring mazkur Nizomning **53 — 55-bandlariga** muvofiq o'tkaziladi.

53. Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun izlanuvchilar faoliyati samaradorligining monitoringi quyidagi mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi:

a) o'qishning birinchi yilida:

dissertatsiya mavzusi bo'yicha tasdiqlangan yakka tartibdagi rejaning mavjudligi va uning bajarilishi;

ixtisoslik bo'yicha tasdiqlangan nazariy-metodologik dasturning mavjudligi va uning bajarilishi;

tegishli jurnallarida dissertatsiya mavzusi bo'yicha kamida bitta ilmiy maqolaning chop etilganligi;

ilmiy konferensiyada dissertatsiya mavzusi bo'yicha ma'ruza bilan ishtirok etganligi;

dissertatsiya mavzusi bo'yicha tahliliy umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumotning mavjudligi;

ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasi seminarida dissertatsiya mavzusiga doir tahliliy umumlashtiruvchi qisqacha ma'lumot natijalari bo'yicha (ilmiy rahbar bilan birgalikda) ma'ruza qilganligi;

b) o'qishning ikkinchi yilida:

tegishli jurnallarida dissertatsiya mavzusi bo'yicha hisobot davrida chop etilgan kamida bitta ilmiy maqolaning mavjudligi;

dissertatsiya mavzusi bo'yicha hisobot davrida ilmiy konferensiya materiallarida kamida bitta chop etilgan ma'ruza tezisining mavjudligi;

tegishli xorijiy jurnalda dissertatsiya mavzusi bo'yicha kamida bitta chop etilgan ilmiy maqola mavjudligi;

ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasi ilmiy-tashkiliy bo'linmasi (kafedra, laboratoriya, bo'lim, sektor) ilmiy seminarida dissertatsiya ishining dastlabki natijalari bo'yicha (mustaqil) ma'ruza bilan ishtirok etish;

dissertatsiya mavzusi bo'yicha yakka tartibdagi rejasining bajarilishi bo'yicha hisobot berish;

v) o'qishning uchinchi yilida:

jurnallarda, shu jumladan xorijiy jurnallarda soni belgilangan talablarga muvofiq chop etilgan ilmiy maqolalari mavjudligi;

OAK talablariga muvofiq tayyorlangan tugallangan dissertatsiya ishi, avtoreferatining mavjudligi;

ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasi ilmiy-tashkiliy bo'linmalari majlislarida dissertatsiya va avtoreferatining ko'rib chiqilganligi va muhokama qilinganligi.

54. Fan doktori (DSc) ilmiy darajasi uchun izlanuvchilar faoliyatining samaradorligi monitoringi quyidagi mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi:

a) o'qishning birinchi yilida:

dissertatsiya mavzusi bo'yicha yakka tartibdagi rejaning mavjudligi va uning bajarilishi;

dissertatsiyaning birinchi va ikkinchi boblari tayyorligi;

dissertatsiya mavzusi bo'yicha tegishli jurnallarda kamida uchta ilmiy maqola chop etilganligi;

dissertatsiya mavzusi bo'yicha respublika va xalqaro ilmiy konferensiyalar materiallarida kamida bitta ma'ruza tezisi chop etilganligi;

dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy konferensiya yoki seminarda ma'ruza qilish;

dissertatsiya mavzusi bo'yicha tahliliy sharh;

dissertatsiya mavzusi bo'yicha tahliliy sharh natijalari bo'yicha seminarda so'zga chiqish;

b) o'qishning ikkinchi yilida:

dissertatsiyaning uchinchi va to'rtinchi boblari tayyorligi;

tegishli jurnallarda dissertatsiya mavzusi bo'yicha hisobot davrida chop etilgan kamida to'rtta ilmiy maqola e'lon qilinganligi (jumladan bittasi xorijda);

dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro va respublika ilmiy konferensiyalar materiallarida chop etilgan kamida bitta ma'ruza tezisining mavjudligi;

dissertatsiya ishining dastlabki natijalari bo'yicha seminar o'tkazish;

konferensiya yoki seminarda ma'ruza bilan qatnashish (kamida bir marta);

dissertatsiya mavzusi bo'yicha yakka tartibdagi rejaning bajarilishi to'g'risidagi hisobot;

v) o'qishning uchinchi yilida:

tegishli jurnallarda dissertatsiya mavzusi bo'yicha hisobot davrida chop etilgan kamida uchta ilmiy maqola e'lon qilinganligi;

dissertatsiya natijalari bo'yicha (ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha) chop etilgan monografiyaning mavjudligi;

OAK talablariga muvofiq tayyorlangan tugallangan dissertatsiya ishi va avtoreferatning mavjudligi;

dissertatsiya yoki avtoreferatni ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasi ilmiy-tashkiliy bo'linmalarida ko'rib chiqilganligi va muhokama etilganligi.

55. Monitoring natijalari Kollegial organ tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Quyidagi asoslarga ko'ra doktorantlar tayanch doktorantura yoki doktoranturadan chetlatilishi mumkin:

o'z arizasiga muvofiq;

salomatligi tufayli (tibbiy komissiya ma'lumotnomasi asosida);

yakka tartibdagi rejalarini bajarmaganda;

ilmiy yoki ta'lim tashkilotining ichki tartib-qoidalarini tizimli (uch yoki undan ortiq) ravishda buzganda;

sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum qilinganda;

hisobotlarni belgilangan muddatda taqdim etmaganda;

dissertatsiyani tayyorlash va himoya qilish talabini buzganda.

Yakka tartibdagi rejalarini bajarmagan doktorantlar Kollegial organ qarori bilan tayanch doktorantura yoki doktoranturadan chetlatiladi va o'qishga qayta tiklanmaydi.

Doktoranturadan monitoring natijalari bo'yicha chetlatilgan yoki dissertatsiyasini muddatida himoya qilmagan shaxslar dissertatsiyasini tugatish va himoya qilish davrida mustaqil

izlanuvchi sifatida rasmiylashtirilishi mumkin. Ilmiy yoki ta'lim tashkilotining ichki tartib-qoidalarini buzgani uchun o'qishdan chetlatilgan shaxslar o'qishga qayta tiklanmaydi.

Yakka tartibdagi rejalarini bajarmagan doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarning ilmiy rahbarlari va konsultantlariga Kollegial organ qarori bilan rahbarlik va maslahat uchun to'lanadigan haq to'xtatiladi. Bunda doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarning rahbarlari hamda konsultantlari bir yil muddatga ilmiy rahbarlik qilishdan chetlashtiriladi.

56. Muntazam ravishda (qatorasiga ikki marta va undan ko'p) izlanuvchilarning dissertatsiyalarini o'z vaqtida himoya qilishni ta'minlamagan ilmiy rahbarlar va konsultantlar Kollegial organ qarori bilan uch yilgacha bo'lgan davrga ilmiy rahbarlik yoki konsultantlikdan chetlatilishi mumkin.

57. Kollegial organ tavsiyasi bo'yicha izlanuvchilarning yakka tartibdagi rejalariga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Ilmiy rahbarlar va ilmiy konsultantlar faoliyatining samaradorligini nazorat qilish Kollegial organ tomonidan amalga oshiriladi.

Monitoring natijalariga ko'ra tegishli ixtisoslik bo'yicha dissertatsiyalarni belgilangan muddatlarda himoya qilmagan izlanuvchilar (ketma-ket uch nafar va undan ortiq) aniqlangan taqdirda, ushbu ixtisoslik bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutining faoliyati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining qaroriga muvofiq har yili mart oyida to'xtatiladi.

Bunda oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutining faoliyati uch yil o'tgandan so'ng mazkur Nizomning 2-bobiga muvofiq qayta tiklanishi mumkin.

### **7-bob. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim to'g'risidagi hujjatlar**

58. Qonunchilikda nazarda tutilgan oliy ta'limdan keyingi ta'lim talablarini bajargan va belgilangan tartibda dissertatsiya himoya qilgan shaxslarga o'rnatilgan tartibda davlat namunasidagi tegishli falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) diplomi beriladi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim to'g'risidagi **nizomga**  
ILOVA

### **Tegishli ixtisosliklar bo'yicha tadqiqotlar olib borayotgan fan nomzodlari, falsafa doktorlari (PhD) va fan doktorlari to'g'risida**

#### **MA'LUMOTLAR**

<b>F.I.O.</b>	<b>Tug'ilgan yili</b>	<b>Ixtisoslik shifri va nomi, dissertatsiya mavzuyi</b>	<b>Ilmiy darajasi, ilmiy unvoni</b>	<b>Ish joyi va lavozimi</b>		<b>Keyingi 5 yilda ixtisoslik bo'yicha asosiy ilmiy ishlari (monografiya, maqolalar) ro'yxati</b>

Rahbar

(imzo)

(F.I.O.)

M.O'.

Sana "\_\_\_" \_\_\_\_\_ yil

**Falsafa doktori (PhD)  
diplomining davlat namunasi  
(tasviri)**

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
OLIY ATTESTATSIYA KOMISSIYASI**

**SUPREME ATTESTATION COMMISSION  
at the Ministry of Higher education, science and innovations  
of the Republic of Uzbekistan**

The Supreme Attestation Commission based on the decision of the scientific council at the

Oliy attestatsiya komissiyasi huzuridagi

.....

ilmiy kengashining qaroriga asosan

hereby confers the scientific degree of

**DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)**

..... fanlari bo'yicha

in .....

**FALSAFA DOKTORI**

to .....

ilmiy darajasini berdi.

00 №  
000000

Date: , records '00 № 000000

Sana: 'bayonn

*Chairman*

Chief  
Scientific Rais  
Secretary

*Bosh ilmiy  
kotib*

**T a s h k e n t**

Reg.  
№

**T o s h k e n t**

Qaydn

**Falsafa doktori diplomi**

Falsafa doktori diplomi yashil-havorang rangli maxsus qog'ozda tayyorlangan va 135 x 105 mm o'lchamga ega. Blanka yuza tomonining yuqori qismidagi 26 mm va 24 mm diametrli ko'k rangli konsentrik aylanalarda 20 mm diametrli rangli O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi joylashgan. Pastki qismida o'zbek tilida lotin shriftida va ingliz tilida ko'k harflar bilan quyidagilar yozilgan:

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi**

**OLIIY ATTESTATSIIYA KOMISSIYASI**

**SUPREME ATTESTATION COMMISSION**  
**at the Ministry of Higher education, science and innovations**  
**of the Republic of Uzbekistan**

Blanka ichki betining chap tomoni markazida 70 mm diametrli fonli O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi joylashgan. O'rtasi bo'ylab to'q sariq fonli polosa o'tgan. Ikkala bet ham 1,5 x 1,5 mm va 2 x 2 mm o'lchamli rastrli setkalardan iborat bo'ladi. Ingliz tilidagi matn qora rangli harflarda, diplomning tartib raqami esa — qizil rangli raqamlarda bosilgan. Blanka ichki betining o'ng tomoni markazida 70 mm diametrli fonli O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi joylashgan. O'rtasi bo'ylab to'q sariq fonli polosa o'tgan. Ikkala bet ham 1,5 x 1,5 mm va 2 x 2 mm o'lchamli rastrli setkalardan iborat bo'ladi. O'zbek tilidagi matn lotin shriftida qora rangli harflarda, diplomning tartib raqami esa — qizil rangli raqamlarda bosilgan.

Diplomning ikkala betiga ham diplom seriyasining ikkita belgili raqamlari va diplom tartib raqamining oltita belgili raqamlari bosiladi.

Diplom himoyalashning 7 ta darajasiga ega:

- 1) ikkita bosma metodlaridan foydalanish: asosiy qismi — ofset usulida, raqamlari — yuqori bosma usulida bosiladi;
- 2) ko'paytirish texnikasida nusxa ko'chirishni qiyinlashtiradigan och tusli bo'yoqlardan foydalanish;
- 3) turli shakldagi rastrli setkalardan foydalanish;
- 4) turli shakldagi rastrli setkalardan foydalanish natijasida yangi ranglar hosil bo'lishi;
- 5) maxsus qog'ozdan foydalanish;
- 6) O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining rangli tasviri;
- 7) oltita shakllarda o'zgaradigan raqamlardan foydalanish.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qaroriga  
4-ILOVA

**Fan doktori (DSc)**  
**diplomining davlat namunasi**  
**(tasviri)**

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri

**O'zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi**  
**OLIIY ATTESTATSIIYA KOMISSIYASI**

**SUPREME ATTESTATION COMMISSION**  
**at the Ministry of Higher education, science and innovations**  
**of the Republic of Uzbekistan**

The Supreme Attestation Commission based on the decision of  
the scientific council at the

Oliy attestatsiya komissiyasi

.....

huzuridagi ilmiy kengashining qaroriga asosan

hereby confers the scientific degree of

.....

**DOCTOR OF SCIENCES (DSc)**

.....

in .....

**FANLARI DOKTORI**

to .....

ilmiy darajasini berdi.

00 №  
000000

Date: 'records' 00 № 000000

Sana: 'bayonno

Chairman

Chief  
Scientific Rais  
Secretary

Bosh ilmiy  
kotib

T a s h k e n t

Reg.  
№

T o s h k e n t

Qaydno

**Fan doktori diplomi**

Fan doktori diplomi yashil-havorang rangli maxsus qog'ozda tayyorlangan va 135 x 105 mm o'lchamga ega. Blanka yuza tomonining yuqori qismidagi 26 mm va 24 mm diametrli ko'k rangli konsentrik aylanalarda 20 mm diametrli rangli O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi joylashgan. Pastki qismida o'zbek tilida lotin shriftida va ingliz tilida ko'k harflar bilan quyidagilar yozilgan:

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
OLIY ATTESTATSIYA KOMISSIYASI  
SUPREME ATTESTATION COMMISSION  
at the Ministry of Higher education, science and innovations  
of the Republic of Uzbekistan**

Blanka ichki betining chap tomoni markazida 70 mm diametrli fonli O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi joylashgan. O'rtasi bo'ylab to'q sariq fonli polosa o'tgan. Ikkala bet ham 1,5 x 1,5 mm va 2 x 2 mm o'lchamli rastrli setkalardan iborat bo'ladi. Ingliz tilidagi matn qora rangli harflarda, diplomning tartib raqami esa — qizil rangli raqamlarda bosilgan. Blanka ichki betining o'ng tomoni markazida 70 mm diametrli fonli O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi joylashgan. O'rtasi bo'ylab to'q sariq fonli polosa o'tgan. Ikkala bet ham 1,5 x 1,5 mm va 2 x 2 mm o'lchamli rastrli setkalardan iborat bo'ladi. O'zbek tilidagi matn lotin shriftida qora rangli harflarda, diplomning tartib raqami esa — qizil rangli raqamlarda bosilgan.

Diplomning ikkala betiga ham diplom seriyasining ikkita belgisi raqamlari va diplom tartib raqamining oltita belgisi raqamlari bosiladi.

Diplom himoyalashning 7 ta darajasiga ega:

- 1) ikkita bosma metodlaridan foydalanish: asosiy qismi — ofset usulida, raqamlari — yuqori bosma usulida bosiladi;
- 2) ko'paytirish texnikasida nusxa ko'chirishni qiyinlashtiradigan och tusli bo'yoqlardan foydalanish;
- 3) turli shakldagi rastrli setkalardan foydalanish;
- 4) turli shakldagi rastrli setkalardan foydalanish natijasida yangi ranglar hosil bo'lishi;
- 5) maxsus qog'ozdan foydalanish;
- 6) O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining rangli tasviri;
- 7) oltita shakllarda o'zgaradigan raqamlardan foydalanish.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qaroriga  
5-ILOVA

**Dotsent attestatining  
davlat namunasi  
(tasviri)**

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
OLIY ATTESTATSIYA KOMISSIYASI**

**SUPREME ATTESTATION COMMISSION  
at the Ministry of Higher education, science and innovations  
of the Republic of Uzbekistan**

The Supreme Attestation Commission upon the recommendation  
of the council of the

Oliy attestatsiya komissiyasi

hereby awards the scientific title of

ilmiy kengashining tavsiyasiga ko'ra

**DOCENT**

of.....

.....bo'yicha

to.....

**DOTSENT**

ilmiy unvonida tasdiqladi.

00 №  
000000

Date: 'records' 00 № 000000

Sana: 'bayonn

Chairman

Chief  
Scientific Rais  
Secretary

Bosh il  
kotib

T a s h k e n t

Reg.  
№

T o s h k e n t

Qaydno

**Dotsent attestati**

Dotsent attestati yashil-havorang rangli maxsus qog'ozda tayyorlangan va 135 x 105 mm o'lchamga ega. Blanka yuza tomonining yuqori qismidagi 26 mm va 24 mm diametrli ko'k rangli konsentrik aylanalarda 20 mm diametrli rangli O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi joylashgan. Pastki qismida o'zbek tilida lotin shriftida va ingliz tilida ko'k harflar bilan quyidagilar yozilgan:

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
OLIY ATTESTATSIYA KOMISSIYASI**

**SUPREME ATTESTATION COMMISSION  
at the Ministry of Higher education, science and innovations  
of the Republic of Uzbekistan**

Blanka ichki betining chap tomoni markazida 70 mm diametrli fonli O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi joylashgan. O'rtasi bo'ylab to'q sariq fonli polosa o'tgan. Ikkala bet ham 1,5 x 1,5 mm va 2 x 2 mm o'lchamli rastrli setkalardan iborat bo'ladi. Ingliz tilidagi matn qora rangli harflarda, diplomning tartib raqami esa — qizil rangli raqamlarda bosilgan. Blanka ichki betining o'ng tomoni markazida 70 mm diametrli fonli O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi joylashgan. O'rtasi bo'ylab to'q sariq fonli polosa o'tgan. Ikkala bet ham 1,5 x 1,5 mm va 2 x 2 mm o'lchamli rastrli setkalardan iborat bo'ladi. O'zbek tilidagi matn lotin shriftida qora rangli harflarda, diplomning tartib raqami esa — qizil rangli raqamlarda bosilgan.

Diplomning ikkala betiga ham diplom seriyasining ikkita belgisi raqamlari va diplom tartib raqamining oltita belgisi raqamlari bosiladi.

Diplom himoyalashning 7 ta darajasiga ega:

- 1) ikkita bosma metodlaridan foydalanish: asosiy qismi — ofset usulida, raqamlari — yuqori bosma usulida bosiladi;
- 2) ko'paytirish texnikasida nusxa ko'chirishni qiyinlashtiradigan och tusli bo'yoqlardan foydalanish;
- 3) turli shakldagi rastrli setkalardan foydalanish;
- 4) turli shakldagi rastrli setkalardan foydalanish natijasida yangi ranglar hosil bo'lishi;
- 5) maxsus qog'ozdan foydalanish;
- 6) O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining rangli tasviri;
- 7) oltita shakllarda o'zgaradigan raqamlardan foydalanish.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qaroriga  
6-ILOVA

**Katta ilmiy xodim attestatining  
davlat namunasi  
(tasviri)**

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
OLIY ATTESTATSIYA KOMISSIYASI**

**SUPREME ATTESTATION COMMISSION  
at the Ministry of Higher education, science and innovations  
of the Republic of Uzbekistan**

The Supreme Attestation Commission upon the recommendation of the council of the Oliy attestatsiya komissiyasi

hereby awards the scientific title of

ilmiy kengashining tavsiyasiga ko'ra

**SENIOR SCIENTIFIC RESEARCHER**

of.....

to.....

00 №  
000000

Date: 'records' 00 № 000000

Sana: 'bayonn

Chairman

Chief  
Scientific Rais  
Secretary

Bosh il  
kotib

**T a s h k e n t**

Reg.  
№

**T o s h k e n t**

Qaydn

**Katta ilmiy xodim attestati**

Katta ilmiy xodim attestati yashil-havorang rangli maxsus qog'ozda tayyorlangan va 135 x 105 mm o'lchamga ega. Blanka yuza tomonining yuqori qismidagi 26 mm va 24 mm diametrli ko'k rangli konsentrik aylanalarda 20 mm diametrli rangli O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi joylashgan. Pastki qismida o'zbek tilida lotin shriftida va ingliz tilida ko'k harflar bilan quyidagilar yozilgan:

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
OLIIY ATTESTATSIIYA KOMISSIYASI**

**SUPREME ATTESTATION COMMISSION  
at the Ministry of Higher education, science and innovations  
of the Republic of Uzbekistan**

Blanka ichki betining chap tomoni markazida 70 mm diametrli fonli O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi joylashgan. O'rtasi bo'ylab to'q sariq fonli polosa o'tgan. Ikkala bet ham 1,5 x 1,5 mm va 2 x 2 mm o'lchamli rastrli setkalardan iborat bo'ladi. Ingliz tilidagi matn qora rangli harflarda, diplomning tartib raqami esa — qizil rangli raqamlarda bosilgan. Blanka ichki betining o'ng tomoni markazida 70 mm diametrli fonli O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi joylashgan. O'rtasi bo'ylab to'q sariq fonli polosa o'tgan. Ikkala bet ham 1,5 x 1,5 mm va 2 x 2 mm o'lchamli rastrli setkalardan iborat bo'ladi. O'zbek tilidagi matn lotin shriftida qora rangli harflarda, diplomning tartib raqami esa — qizil rangli raqamlarda bosilgan.

Diplomning ikkala betiga ham diplom seriyasining ikkita belgili raqamlari va diplom tartib raqamining oltita belgili raqamlari bosiladi.

Diplom himoyalashning 7 ta darajasiga ega:

- 1) ikkita bosma metodlaridan foydalanish: asosiy qismi — ofset usulida, raqamlari — yuqori bosma usulida bosiladi;
- 2) ko'paytirish texnikasida nusxa ko'chirishni qiyinlashtiradigan och tusli bo'yoqlardan foydalanish;
- 3) turli shakldagi rastrli setkalardan foydalanish;
- 4) turli shakldagi rastrli setkalardan foydalanish natijasida yangi ranglar hosil bo'lishi;
- 5) maxsus qog'ozdan foydalanish;
- 6) O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining rangli tasviri;
- 7) oltita shakllarda o'zgaradigan raqamlardan foydalanish.

**Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qaroriga  
7-ILOVA**

**Professor attestatining  
davlat namunasi  
(tasviri)**

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirlig huzuridagi  
OLIIY ATTESTATSIIYA KOMISSIYASI**

**SUPREME ATTESTATION COMMISSION**

**at the Ministry of Higher education, science and innovations  
of the Republic of Uzbekistan**

The Supreme Attestation Commission upon the recommendation of the souncil of the

Oliy attestatsiya komissiyasi

hereby awards the scientific title of

ilmiy kengashining tavsiyasiga ko'ra

**PROFESSOR**

.....bo'yicha

of.....

**PROFESSOR**

to.....

ilmiy unvonida tasdiqladi.

00 №  
000000

Date: 'records' 00 № 000000

Sana: 'bayonn

Chairman

Chief  
Scientific Rais  
Secretary

Bosh il  
kotib

**T a s h k e n t**

Reg.  
№

**T o s h k e n t**

Qaydn

**Professor attestati**

Professor attestati yashil-havorang rangli maxsus qog'ozda tayyorlangan va 135 x 105 mm o'lchamga ega. Blanka yuza tomonining yuqori qismidagi 26 mm va 24 mm diametrli ko'k rangli konsentrik aylanalarda 20 mm diametrli rangli O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi joylashgan. Pastki qismida o'zbek tilida lotin shriftida va ingliz tilida ko'k harflar bilan quyidagilar yozilgan:

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
OLIY ATTESTATSIYA KOMISSIYASI**

**SUPREME ATTESTATION COMMISSION  
at the Ministry of Higher education, science and innovations  
of the Republic of Uzbekistan**

Blanka ichki betining chap tomoni markazida 70 mm diametrli fonli O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi joylashgan. O'rtasi bo'ylab to'q sariq fonli polosa o'tgan. Ikkala bet ham 1,5 x 1,5 mm va 2 x 2 mm o'lchamli rastrli setkalardan iborat bo'ladi. Ingliz tilidagi matn qora rangli harflarda, diplomning tartib raqami esa — qizil rangli raqamlarda bosilgan. Blanka ichki betining o'ng tomoni markazida 70 mm diametrli fonli O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi joylashgan. O'rtasi bo'ylab to'q sariq fonli polosa o'tgan. Ikkala bet ham 1,5 x 1,5 mm va 2 x 2 mm o'lchamli rastrli setkalardan iborat bo'ladi. O'zbek tilidagi matn lotin shriftida qora rangli harflarda, diplomning tartib raqami esa — qizil rangli raqamlarda bosilgan.

Diplomning ikkala betiga ham diplom seriyasining ikkita belgisi raqamlari va diplom tartib raqamining oltita belgisi raqamlari bosiladi.

Diplom himoyalashning 7 ta darajasiga ega:

- 1) ikkita bosma metodlaridan foydalanish: asosiy qismi — ofset usulida, raqamlari — yuqori bosma usulida bosiladi;
- 2) ko'paytirish texnikasida nusxa ko'chirishni qiyinlashtiradigan och tusli bo'yoqlardan foydalanish;
- 3) turli shakldagi rastrli setkalardan foydalanish;
- 4) turli shakldagi rastrli setkalardan foydalanish natijasida yangi ranglar hosil bo'lishi;
- 5) maxsus qog'ozdan foydalanish;
- 6) O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining rangli tasviri;
- 7) oltita shakllarda o'zgaradigan raqamlardan foydalanish.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qaroriga  
8-ILOVA

**Vazirlar Mahkamasining "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2012-yil 28-dekabrda 365-son qaroriga kiritilayotgan**

**O'ZGARTIRISHLAR**

1. 1-bandning **ikkinchi**, **uchinchi** va **oltinchi xatboshilari**, shuningdek **1, 2** va **5-ilovalar** o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

2. 4-ilovada:

a) 6-bandda:

to'rtinchi xatboshidagi "doktorlik dissertatsiyasi ishlariga hamda fan doktori ilmiy darajasi" so'zlari "dissertatsiya ishlariga hamda falsafa doktori (Doctor of Philosophy, bundan buyon — PhD), fan doktori (Doctor of Sciences, bundan buyon — DSc) ilmiy darajalari" so'zlari bilan almashtirilsin;

to'qqizinchi xatboshidagi "fan doktori ilmiy darajasi" so'zlari "falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) ilmiy darajalari" so'zlari bilan almashtirilsin;

b) 7-bandda:

ikkinchi xatboshidagi "ilmiy tashkilotlari" so'zlari "oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari" so'zlari bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalarini olish uchun dissertatsiya tadqiqotlari mavzulari monitoringini olib boradi, shuningdek ularni ro'yxatdan o'tkazadi";

to'rtinchi xatboshidagi "katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar va mustaqil izlanuvchi" so'zlari "tayanch doktorantura va doktorantura hamda mustaqil izlanuvchi" so'zlari bilan almashtirilsin;

beshinchi xatboshidagi "fan doktori ilmiy unvonini" so'zlari "ilmiy darajalarni" so'zlari bilan almashtirilsin;

oltinchi, yettinchi xatboshidagi "fan doktori ilmiy darajasini" so'zlari "ilmiy darajalarni" so'zlari bilan almashtirilsin;

sakkizinchi xatboshidagi "doktorlik dissertatsiyalarining" so'zlari "falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalarini olish uchun dissertatsiyalarning" so'zlari bilan almashtirilsin;

o'ninchi, o'n birinchi xatboshidagi "fan doktori ilmiy darajasini" so'zlari "falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalarini" so'zlari bilan almashtirilsin;

o'n ikkinchi xatboshidagi "fan doktori" so'zlari "ilmiy daraja" so'zlari bilan almashtirilsin;

o'n uchinchi xatboshidagi "fan doktori" so'zlari "falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)" so'zlari bilan almashtirilsin;

o'n beshinchi xatboshidagi "doktorlik dissertatsiyasi" so'zlari "dissertatsiya" so'zlari bilan almashtirilsin;

v) 8-bandda:

to'rtinchi xatboshidagi "fan doktori" so'zlari "falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)" so'zlari bilan almashtirilsin;

beshinchi, oltinchi, sakkizinchi, o'n birinchi xatboshlardagi "fan doktori ilmiy darajasini berish bo'yicha" so'zlari "ilmiy darajalar beruvchi" so'zlari bilan almashtirilsin;

g) 14-bandda to'rtinchi xatboshidagi "ilmiy daraja" so'zlari "ilmiy darajalar" so'zlari bilan almashtirilsin;

d) 15-bandda:

beshinchi xatboshidagi "fan doktori ilmiy darajasi berish bo'yicha ilmiy kengashlar" so'zlari "ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar" so'zlari bilan almashtirilsin;

yettinchi xatboshidagi "ilmiy daraja" so'zlari "ilmiy darajalar" so'zlari bilan almashtirilsin;

sakkizinchi xatboshidagi "fan doktori ilmiy darajasi berish bo'yicha" so'zlari "ilmiy darajalar beruvchi" so'zlari bilan almashtirilsin;

to'qqizinchi xatboshidagi "doktorlik dissertatsiyalari" so'zlari "dissertatsiyalar" so'zlari bilan almashtirilsin;

e) 16-bandning birinchi va sakkizinchi xatboshilaridagi "doktorlik dissertatsiyalarining" so'zlari "dissertatsiyalarning" so'zi bilan almashtirilsin;

j) 17-banddagi "fan doktori ilmiy darajasini berish bo'yicha" so'zlari "ilmiy darajalar beruvchi" so'zlari bilan almashtirilsin;

z) 26-bandning birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"26. Taqdim etilgan dissertatsiyalarni, ularning ilmiy va amaliy ahamiyatini ilmiy ekspertizadan o'tkazish, ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar ishini va attestatsiya o'tkazishda talablarning yagonaligi ta'minlanishini nazorat qilish, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish to'g'risidagi taqdimnomalarni ko'rib chiqish, shuningdek OAK Rayosatiga tavsiyalar tayyorlash

uchun fan, texnika, ta'lim va madaniyat sohalaridagi yetakchi olimlar va mutaxassislardan fan yo'nalishlari bo'yicha ekspert kengashlari tashkil etiladi.”;

i) 28-banddagi “fan doktori ilmiy darajasi” so'zlari “ilmiy darajalar” so'zlari bilan almashtirilsin;

k) 29-bandning ikkinchi xatboshidagi “fan doktori ilmiy darajasi” so'zlari “ilmiy darajalar” so'zlari bilan almashtirilsin;

l) 30-banddagi “Fan doktori ilmiy darajasini” so'zlari “ilmiy darajalar” so'zlari bilan almashtirilsin.

*(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 21-son, 396-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.11.2017-y., 09/17/898/0234-son, 15.02.2018-y., 09/18/109/0699-son, 22.07.2019-y., 09/19/606/3457-son, 17.08.2019-y., 09/19/684/3601-son, 12.10.2019-y., 09/19/864/3902-son, 29.12.2019-y., 09/19/1046/4242-son; 07.11.2020-y., 09/20/696/1481-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.06.2021-y., 09/21/345/0522-son, 28.08.2021-y., 09/21/545/0832-son; 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son; 01.01.2023-y., 07/23/471/0001-son; 21.08.2024-y., 09/24/522/0634-son; 13.06.2025-y., 09/25/362/0507-son; 06.08.2025-y., 09/25/498/0698-son; 29.09.2025-y., 09/25/608/0879-son; 06.01.2026-y., 09/26/840/0012-son)*